



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No2
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINING MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr.
2026-yil, mart.*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanov Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.




MUNDARIJA

XODIMLARNING EMOTSIONAL INTELLEKTI, KORPORATIV MADANIYAT VA MEHNAT UNUMDORLIGI O'RTASIDAGI UZVIY BOG'LIQLIKNI CHUQUUR TAHLIL QILISH.....	8
Shoabdurashidova Mahina Jaxongir qizi, Ibroximov Ilxomjon Shavkatjon o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ESG TAMOYILLARI INTEGRATSIYASI ORQALI KORXONALAR BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASH.....	15
Jolg'ashova Nozima Mansurovna, T.D. Mamatkulov	
АНАЛИЗ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ РЕГИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	21
Давлетова Адиля Азатбаевна, Сапаев Дилшод Хушнудович	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI RIVOJLANISHI IQTISODIY O'SISHNING OMILI.....	27
Jumaniyazov Rashid Azamatovich, Ismailov Baxit Abdireymovich	
“LOKOMOTIV” MEHMONXONASI ZAMONAVIY SHAROITLARDI XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	31
Masharipov O'rolbek Ozod o'g'li, Khodjaeva Nodiraxon Abdurashidovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ TIZIMINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	36
Boybosinova Shaxlo Meles qizi, Ostonsv Muhridin Bahriddin o'g'li	
AUDITORLIK TEKSHIRUVI JARAYONIDA AUDITORLIK DALILLARINI TO'PLASH VA BAHOLASH USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	44
Qodirjonov Dilshodjon Qosimjon o'g'li, Xolmirzayev Ulug'bek	
BUXGALTERIYA HISOBINI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA MOLIVAVIY NAZORAT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	49
Igamberdieva Kunduz Ergashevna, O'razova Marjona Valiboy qizi	
ВЛИЯНИЕ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ НА ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ.....	55
Камилова Наргиза Абдукаxоровна, Давронов Дониёрбек Заррухович	
ANALYSIS OF OUR COUNTRY'S POSSIBILITIES FOR ACCESS TO THE SEA THROUGH THE KABUL CORRIDOR.....	61
Khuzhamov Babur, Khudoyberdiev Diyorbek, Jumaboev Bekzod	
O'ZBEKISTONDA ESK.UZ TIZIMINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA ISTIQBOLLARI	69
M.J.Nurmetova, Baxtyorov Ahadbek Doniyor o'g'li	
O'ZBEKISTONDA KRIPTOVALYUTALARNING JORIY FOYDALANISHINI TAHLIL QILISH.....	77
Qobilova N. Q., Normurodiv X. E.	
MOLIVAVIY RISKLAR VA ULARNI XALQARO MIQYOSDA BOSHQARISH USULLARI.....	83
Toirov Bobur G'ofir o'g'li, F.U.Umarov	
SUN'IY INTELEKTNING INSON ONGIGA VA DAVLAT KORXONALARINI RAQAMLASHTIRISHGA TA'SIRI.....	90
Uskanboyev Temurbek Ismoil o'g'li, F.U.Umarov	
IQTISODIYOT TARMOQLARI YUKLARINI TASHISHNI TASHKIL ETISH.....	97
Ne'matov Husniddin Alijon o'g'li, Maxmudov Abrorxon Axmadxonovich	



IQTISODIYOT TARMOQLARI YUKLARINI TASHISHNI TASHKIL ETISH



Ne'matov Husniddin Alijon o'g'li

Namangan davlat texnika universiteti talabasi

E-mail: husniddin2206@gmail.com,

ORCID: [0009-0003-2330-2327](https://orcid.org/0009-0003-2330-2327)

Ilmiy rahbar

Maxmudov Abrorxon Axmadxonovich

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: abr_max@bk.ru,

ORCID: [0000-0003-4594-9335](https://orcid.org/0000-0003-4594-9335)

Annotatsiya: Mazkur ishda iqtisodiyot tarmoqlari yuklarini tashishni tashkil etishning nazariy va amaliy asoslari o'rganilgan. Unda yuk tashishning iqtisodiyotdagi o'rni, yuk turlari va ularning xususiyatlari, transport turlarini tanlash mezonlari hamda yuk tashish jarayonlarini samarali rejalashtirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, logistika tizimlarining ahamiyati, yuk tashishda xarajatlarni kamaytirish va transport vositalaridan oqilona foydalanish yo'llari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari yuk tashishni tashkil etishda samaradorlikni oshirish va iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: sanoat yuklari, yuklarni transportda tashishga tayyorlash, yog'och qadoqlash, metall qadoqlash, vakuum qadoqlash, yuklarni mahkamlash, GPS monitoring va boshqarish, ombor operatsiyalari, xavfsizlik choralari, xavfli yuklarning xususiyatlari, sug'urta hujjatlari.

Abstract: This paper examines the theoretical and practical aspects of organizing freight transportation in various sectors of the economy, including industrial cargo. The study analyzes the processes of preparing goods for transportation, including the characteristics of wooden, metal, and vacuum packaging and their role in ensuring cargo safety. Issues related to proper loading and securing of cargo on transport vehicles, as well as monitoring and management of transportation processes using GPS tracking systems, are also discussed. Special attention is given to warehouse operations, cargo storage and handling processes, transport safety measures, and the specific characteristics of dangerous goods. In addition, the importance of insurance documents and the procedures for their preparation in freight transportation are highlighted. The research findings contribute to improving transportation efficiency, enhancing safety, and optimizing logistics processes.

Key words: industrial cargo, preparation of cargo for transportation, wooden packaging, metal packaging, vacuum packaging, cargo securing, GPS monitoring and control, warehouse operations, safety measures, characteristics of dangerous goods, insurance documents.

Аннотация: В данной работе изучены теоретические и практические основы организации перевозки грузов отраслей экономики. Освещены роль грузовых перевозок в экономике, виды грузов и их особенности, критерии выбора видов транспорта, а также вопросы эффективного планирования процессов перевозки грузов. Кроме того, проанализированы значение логистических систем, пути снижения транспортных затрат и рационального использования транспортных средств. Результаты исследования способствуют повышению эффективности организации грузовых перевозок и укреплению взаимосвязей между отраслями экономики.

Ключевые слова: промышленные грузы, подготовка грузов к транспортировке, деревянная упаковка, металлическая упаковка, вакуумная упаковка, крепление грузов, GPS-мониторинг и управление, складские операции, меры безопасности, характеристики опасных грузов, страховые документы.



KIRISH

Yuklarni transportda tashishga tayyorlash operatsiyalari, odatda, yuk jo'natuvchilar tomonidan amalga oshiriladi. Transport tashkilotlari jo'natish manzilida yuklarni qabul qilib olib, amaldagi qoida va me'yorlarda belgilangan sifat hamda miqdor ko'rsatkichlariga putur yetkazmagan holda, ya'ni yuklarni asrab-avaylab, ularni belgilangan manzilga o'z vaqtida yetkazib berishi va yuk oluvchiga topshirishi lozim.

Shu bilan birga, ko'plab tovarlar, mahsulotlar va xomashyolar ishlab chiqarilgan holatida to'g'ridan-to'g'ri tashishga tayyor bo'lmaydi. Masalan, yirik va og'ir vaznli yuklarni ortish gabariti chegaralariga mos holda transport vositalariga joylashtirish har doim ham imkoni bo'lmaydi. Bunday hollarda yuklar qismlarga ajratilib, tashishga mos holatga keltiriladi. Ushbu jarayonlar yuk jo'natuvchi tomonidan oldindan amalga oshirilishi talab etiladi. Shuningdek, un, shakar kabi mahsulotlarni maxsus qoplarga joylashtirish zarur bo'ladi.

Demak, yuklarni tashishga tayyorlash operatsiyalari yuk egalari tomonidan bajarilib, transport jarayonining muhim bosqichi hisoblanadi.

Sanoat yuklari ishlab chiqarish jarayonida xomashyo, materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, uskuna va texnik jihozlar, butlovchi qismlar, yoqilg'i, energiya tashuvchilar hamda ishlab chiqarish chiqindilarini o'z ichiga oladi. Ushbu yuklar korxonaning ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur bo'lgan barcha moddiy resurslarning tashilishi va saqlanishi bilan bog'liq majmuani tashkil etadi. Ular ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlashda, logistika tizimlarida hamda korxonalar o'rtasidagi kooperatsiya aloqalarida muhim o'rin tutadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Transportda yuklarni tashish tizimining iqtisodiy salohiyatni oshirishdagi o'rni so'nggi yillarda dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida keng o'rganilmoqda. Mazkur yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar, asosan, transport infratuzilmasini rivojlantirishning iqtisodiyotga ta'siri, zamonaviy logistika texnologiyalarini joriy etish hamda xalqaro savdo zanjirlariga integratsiya masalalariga qaratilgan.

M. Porter o'zining "Raqobat ustunligi" asarida transport tizimining raqobatbardoshlikni ta'minlashdagi muhim ahamiyatini asoslab bergan. U transport-logistika tizimini iqtisodiy qiymat zanjirining ajralmas tarkibiy qismi sifatida talqin qilib, uning resurslarni samarali taqsimlashdagi rolini alohida ta'kidlaydi.

J. Rodrigue "The Geography of Transport Systems" nomli tadqiqotida transport tizimining iqtisodiy salohiyatga makroiqtisodiy ta'sirini tahlil qilgan. U transport infratuzilmasining rivojlanishi savdo hajmini oshirishga va logistika xarajatlarini qisqartirishga xizmat qilishini ilmiy asoslab beradi. Shuningdek, mintaqaviy transport yo'llarining kengayishi xalqaro savdo samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini qayd etadi.

E. Ballou transport va logistikaning strategik rejalashtirilishi masalalarini o'rganib, logistika infratuzilmasining texnologik rivoji iqtisodiyotga qo'shimcha qiymat olib kelishini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, zamonaviy texnologiyalar, jumladan, avtomatlashtirilgan logistika tizimlarini joriy etish yuklarni yetkazib berish tezligini oshiradi va umumiy samaradorlikni yuksaltiradi.

O'zbekiston iqtisodiyotida transport-logistika tizimini rivojlantirishga oid tadqiqotlarda, xususan, A. Toshmatov tomonidan milliy logistika infratuzilmasining hozirgi holati va istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlari tahlil qilingan. U davlat tomonidan amalga oshirilayotgan logistika markazlarini tashkil etish dasturlari eksport salohiyatini oshirishda muhim omil ekanligini asoslab beradi.

Umuman olganda, transport-logistika tizimi iqtisodiy salohiyatni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tizimni yanada takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilashga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda iqtisodiyot tarmoqlarida yuk tashishni tashkil etish jarayonlari kompleks yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqot jarayonida tahliliy, taqqoslash va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Yuk tashish jarayonining asosiy bosqichlari, jumladan, qadoqlash, yuklash, tashish va yetkazib berish operatsiyalari o'rganilib, ularning samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar aniqlashtirildi. Shuningdek, logistika tizimlari, GPS monitoring, ombor boshqaruvi va xavfsizlik choralari bo'yicha amaliy ma'lumotlar tahlil qilindi. Tadqiqotda mavjud ilmiy adabiyotlar, zamonaviy transport-logistika tizimlari hamda amaliy tajribalar asosida umumlashtirish va xulosa chiqarish usullari qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuklarni ortish-tushirish, ombor operatsiyalari hamda yetkazib berish jarayonlarini amalga oshirishda yuklarni nobudgarchilikdan asrash, ularni belgilangan muddatlarda yetkazib berish, shuningdek, transportning atrof-muhitga ta'sirini minimallashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Ushbu jarayonlarda transport xodimlarining mas'uliyati muhim ahamiyat kasb etadi.



Yog'och qadoqlash eng keng tarqalgan usullardan biri hisoblanadi. Yashiklar turli o'lchamlarda bo'ladi: kichik ($0,5 \text{ m}^3$ gacha), o'rta ($0,5\text{--}1,5 \text{ m}^3$) va katta ($1,5 \text{ m}^3$ dan ortiq). Ular, asosan, taxta yoki faneradan tayyorlanadi. Og'ir yuklar uchun qo'shimcha ravishda metall burchaklar va mustahkamlovchi lentalar qo'llaniladi. Yashiklarning ichki qismi esa porolon, gofrokarton yoki plastik plyonka kabi yumshoq materiallar bilan to'ldiriladi.

Metall qadoqlash bochkalar, qutilar va konteynerlardan iborat bo'ladi. Standart metall bochka odatda 200 litr sig'imga ega bo'lib, suyuq va pastasimon moddalarni tashishda qo'llaniladi. Metall qutilar germetik xususiyatga ega bo'lib, kimyoviy moddalar va qimmatbaho yuklarni tashishda keng foydalaniladi. IBC-konteynerlar (Intermediate Bulk Container) esa 1000 litr sig'imli, kub shaklidagi idishlar bo'lib, metall karkas ichiga joylashtirilgan plastik rezervuardan tashkil topadi.

Vakuum qadoqlash mahsulot atrofidagi havoni chiqarib tashlash orqali amalga oshiriladi. Ushbu usul oziq-ovqat mahsulotlari, elektronika va tibbiy asbob-uskunalar uchun qo'llaniladi. Shuningdek, shrink-plyonka (qizdirilganda qisqaruvchi plyonka) bir nechta yuklarni yagona blokka birlashtirishda, stretch-plyonka (cho'ziluvchan plyonka) esa poddonlarda joylashgan yuklarni o'rashda samarali vosita hisoblanadi.

Yuklarni mahkamlash transport vositalarida (yengil avtomobil, yuk mashinasi, poyezd, kema yoki samolyotda) yuklarning harakat davomida siljib ketmasligi, ag'darilmasligi yoki shikastlanmasligini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi. Po'lat zanjirlar odatda 6 mm dan 16 mm gacha diametrdagi ishlab chiqarilib, 1 dan 10 tonnagacha yukni ushlab turish imkoniyatiga ega. Ular maxsus qulflash va taranglashtirish mexanizmlari bilan jihozlanadi. Har bir zanjirda ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan maksimal yuk ko'rsatkichi mavjud bo'ladi. Zanjirlar muntazam ravishda texnik ko'rikdan o'tkazilib, zararlangan qismlar o'z vaqtida almashtiriladi.

Tekstil tasmalar (stroplar) elastik va yumshoq tuzilishga ega bo'lgani sababli sirpanishga moyil yuzali yuklarni mahkamlashda samarali hisoblanadi. Ular poliester yoki neylondan tayyorlanadi hamda ranglar orqali yuk ko'tarish quvvatiga qarab farqlanadi: sariq – 1 tonna, ko'k – 2 tonna, qizil – 5 tonna. Ratschet mexanizmi tasmalarni oson tortish va bo'shatish imkonini beradi.

Burchak himoyachilari yuklarning o'tkir qirralarini yumshatish va mahkamlovchi vositalarning shikastlanishini oldini olish uchun qo'llaniladi. Yog'och to'siqlar yoki bruslar yukning osti yoki yon tomoniga o'rnatilib, uning harakatini cheklaydi va og'irlikning teng taqsimlanishini ta'minlaydi. Pnevmatik yostiqlar (airbaglar) esa konteyner ichida yuklarning harakatsizligini ta'minlash uchun qo'llanilib, bo'shliqlarga joylashtiriladi va havo bilan to'ldiriladi.

Yo'l marshrutini tanlashda bir qator omillar hisobga olinadi. Yo'l qoplamasining sifati muhim ahamiyatga ega bo'lib, asfalt yo'llar barcha transport turlari uchun qulay, gruntli yo'llar esa, asosan, quruq mavsumda va maxsus transport vositalari yordamida foydalanishga yaroqli hisoblanadi. Yo'l kengligi ham muhim omil bo'lib, ikki polosali yo'llar xavfsizlik va tezlik nuqtai nazaridan ustunlikka ega, tog'li hududlardagi tor yo'llar esa ehtiyotkorlikni talab etadi.

Ko'prik va estakadalar yuk ko'tarish cheklovlariga ega bo'lib, odatda ruxsat etilgan maksimal yuk 40–60 tonna oraliqida belgilanadi. Ushbu ko'rsatkichdan ortiq yuklar uchun maxsus ruxsatnoma olish va muqobil marshrutlardan foydalanish talab etiladi. Tunnel va yer osti yo'llarida balandlik cheklovlari mavjud bo'lib, odatda 4,2–4,5 m, ayrim hollarda 3,8 m ni tashkil etadi. Gabaritdan tashqari yuklar uchun oldindan yo'lni o'rganish (razvedka) ishlari amalga oshiriladi.

Xavfli yuklarni tashishda maxsus marshrutlar belgilanadi. Ushbu marshrutlar aholi yashash hududlari, ijtimoiy obyektlar (maktablar, shifoxonalar), suv manbalari hamda ekologik muhofaza zonalaridan uzoqroq hududlardan o'tkaziladi. Ayrim shaharlarda xavfli yuklar bilan markaziy hududlarga kirish cheklanadi yoki faqat ma'lum vaqt oraliqida (00:00–06:00) ruxsat etiladi.

Vaqtni rejalashtirish jarayonida haydovchilarning ish vaqti xalqaro me'yorlar asosida tartibga solinadi. Bir kunlik haydash vaqti 9 soatdan oshmasligi lozim (haftasiga ikki marta 10 soatgacha ruxsat etiladi). Har 4,5 soat haydashdan so'ng kamida 45 daqiqalik tanaffus berilishi majburiy. Kunlik dam olish vaqti kamida 11 soatni tashkil etadi (ayrim hollarda 9 soatgacha qisqartirilishi mumkin, keyinchalik kompensatsiya qilinadi).

Taxograf (raqamli nazorat qurilmasi) haydovchining faoliyatini doimiy ravishda qayd etib boradi: haydash vaqti, tanaffuslar, dam olish davrlari hamda yuklash jarayonlari. Ushbu ma'lumotlar maxsus kartalarda saqlanadi va nazorat organlari tomonidan tekshiriladi.

Yuk yetkazib berish muddatlariga rioya etish muhim hisoblanadi. Belgilangan muddatlarning buzilishi moliyaviy majburiyatlarga olib kelishi mumkin. Tez buziluvchi yuklar, xususan, oziq-ovqat mahsulotlari uchun vaqt va harorat rejimiga qat'iy amal qilish zarur bo'lib, bu ularning sifatini saqlab qolishda muhim omil hisoblanadi.

GPS monitoring tizimlari zamonaviy yuk tashish jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Yuk avtomobillari GPS/GLONASS trekerlari bilan jihozlanib, transport vositasining joylashuvini 10–30 soniya intervalda uzatib boradi. Dispetcherlar kompyuter orqali barcha transport vositalarining harakatini real vaqt rejimida kuzatadi va zarur boshqaruv qarorlarini qabul qiladi. Ushbu tizimlar marshrut monitoringi, tezlik nazorati, yoqilg'i sarfi hisobi, to'xtash joylari va vaqti, shuningdek, geo-zonalar (ruxsat etilgan va cheklangan hududlar)ni nazorat qilish imkonini beradi.



Telemetrik tizimlar dvigatel holatini, jumladan, aylanishlar soni, yoqilg'i sarfi, sovutish suyuqligi harorati hamda tormoz tizimi bosimini nazorat qiladi. Bu ma'lumotlar nosozliklarni oldindan aniqlashga va texnik xizmat ko'rsatish xarajatlarini optimallashtirishga xizmat qiladi. Ayrim tizimlar haydovchining harakat uslubini ham baholaydi, ya'ni keskin tormozlash, tezlashtirish va tezlik cheklovlariga rioya etilishini nazorat qiladi. Video monitoring (dashcam va ichki kameralar) transport jarayonida yuzaga keladigan holatlarni tahlil qilish va xavfsizlikni oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Axborot xavfsizligini ta'minlash maqsadida barcha ma'lumotlar shifrlangan kanallar orqali uzatiladi.

Ombor operatsiyalarini tashkil etish bir necha bosqichlardan iborat. Dastlab yuklarning qadoqlanish holati vizual tekshiriladi, so'ngra ularning miqdori o'lchash va tortish orqali aniqlanadi. Zarur hollarda sifat nazorati uchun laboratoriya tahlillari amalga oshiriladi. Barcha ma'lumotlar axborot tizimlariga kiritilib, yuklar ombor hisobiga olinadi.

Saqlash zonalarini yuk turiga qarab tashkil etiladi: oddiy yuklar uchun ochiq maydonchalar, qimmatbaho yuklar uchun yopiq omborlar, sovitiladigan mahsulotlar uchun esa maxsus muzlatkich kameralar qo'llaniladi. Yuklarni joylashtirishda ABC tahlilidan foydalaniladi: A toifadagi tez aylanuvchi yuklar kirish joyiga yaqin, C toifadagi sekin aylanuvchi yuklar esa uzoqroq hududlarga joylashtiriladi.

WMS (Warehouse Management System) zamonaviy ombor boshqaruvi tizimi bo'lib, har bir yuk birligini kuzatish, optimal saqlash joyini aniqlash va operatsiyalarni rejalashtirish imkonini beradi. Shtrix-kod skanerlash texnologiyasi xatoliklarni kamaytiradi, avtomatlashtirilgan tizimlar (robotlar va konveyerlar) esa jarayonlarning samaradorligini oshiradi.

Yuk tashishda xavfsizlik choralari alohida e'tibor qaratiladi. To'g'ri joylashtirilgan va mustahkamlangan yuk transport jarayonining xavfsizligini ta'minlaydi hamda barcha ishtirokchilar uchun barqaror muhit yaratadi. Shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish majburiy bo'lib, ular qattiq kaska, himoya ko'zoynaklari, qo'lqoplar va maxsus poyabzallarni o'z ichiga oladi. Zarur hollarda qo'shimcha himoya vositalari ham qo'llaniladi.

Xavfsizlik qoidalariga rioya qilish transport jarayonining muhim talabi hisoblanadi. Ishchi hududlar aniq belgilanishi, yuk ko'tarish jarayonlari nazorat ostida amalga oshirilishi va aloqa vositalari orqali uzluksiz boshqaruv ta'minlanishi zarur. Favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik ko'rish maqsadida ombor va terminallar yong'inga qarshi vositalar, birinchi yordam punktlari va evakuatsiya rejalari bilan jihozlanadi.

Yuk tashishda hujjatlashtirish muhim o'rin tutadi. CMR (xalqaro yuk xati) transport jarayonining asosiy hujjati bo'lib, unda yuboruvchi va qabul qiluvchi haqidagi ma'lumotlar, yuk tavsifi, tashish shartlari va to'lov masalalari aks ettiriladi. TTN esa ichki hisob-kitob hujjati bo'lib, yuk qiymati va soliq ma'lumotlarini o'z ichiga oladi.

Xavfli yuklar uchun qo'shimcha hujjatlar talab etiladi. MSDS (Material Safety Data Sheet) moddaning xavfsizlik xususiyatlarini tavsiflaydi, ADR sertifikatiga esa haydovchining maxsus tayyorgarlikdan o'tganligini tasdiqlaydi. Marshrut kartasi tashish yo'nalishini, to'xtash joylarini va zarur xizmatlar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Xalqaro tashishlarda bojxona rasmiylashtiruv majburiy hisoblanadi. Eksport va import deklaratsiyalari, invoice (hisob-faktura), packing list (yuk ro'yxati) hamda sertifikatlar yukning qonuniy harakatini ta'minlaydi. Karnet TIR tizimi orqali yuklar bir necha davlat hududidan soddalashtirilgan tartibda o'tkazilishi mumkin, bu esa vaqt va xarajatlarni tejashga xizmat qiladi.

Sug'urta tizimi yuk tashish jarayonida muhim himoya mexanizmi hisoblanadi. Cargo insurance yukning saqlanishini kafolatlashga xizmat qilib, turli risklarni qamrab oladi. "All Risks" sug'urta turi keng qamrovli himoyani ta'minlasa, "Named Perils" faqat belgilangan xavflarni qoplaydi. Shuningdek, tashuvchining javobgarligini sug'urtalash tizimi ham transport jarayonining barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Iqtisodiyot tarmoqlari yuklarini tashishni tashkil etish transport tizimining muhim va ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Har bir iqtisodiyot tarmog'ining samarali faoliyat yuritishi yuklarni o'z vaqtida, xavfsiz hamda iqtisodiy jihatdan samarali tarzda yetkazib berish jarayoniga bevosita bog'liqdir. Shu bois yuk tashish jarayonini puxta rejalashtirish, tashish usullarini to'g'ri tanlash, transport vositalaridan samarali foydalanish hamda logistika jarayonlarini tizimli ravishda tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Yuk tashishni tashkil etish jarayonida yukning turi, hajmi, tashish masofasi, tashish sharoitlari hamda iqtisodiy samaradorlik kabi omillar kompleks ravishda hisobga olinadi. Turli iqtisodiyot tarmoqlarida yuklarning xususiyatlari farqlanadi. Masalan, sanoat tarmog'ida asosan xomashyo va tayyor mahsulotlar tashilsa, qishloq xo'jaligida tez buziluvchi mahsulotlar yoki ommaviy yuklar ustunlik qiladi. Shu sababli har bir yuk turi uchun mos transport vositasi va zamonaviy tashish texnologiyalarini tanlash zarur hisoblanadi.

Bundan tashqari, yuk tashish jarayonida logistika tizimining samarali tashkil etilishi, transport yo'nalishlarini optimallashtirish, ortish-tushirish ishlarini mexanizatsiyalash hamda ilg'or axborot texnologiyalarini joriy etish



muhim natijalarni ta'minlaydi. Ushbu chora-tadbirlar transport xarajatlarini qisqartirish, vaqt resurslaridan oqilona foydalanish va iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

- yuk tashish jarayonlarida raqamli logistika tizimlarini keng joriy etish;
- transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish va multimodal tashish tizimlarini rivojlantirish;
- yuk ortish-tushirish jarayonlarini avtomatlashtirish va mexanizatsiyalash darajasini oshirish;
- xavfsizlik standartlari va ekologik talablarni yanada kuchaytirish;
- logistika sohasida malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish.

Umuman olganda, yuk tashishni tashkil etish jarayonini ilmiy asosda takomillashtirish iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Matkarimov K.J., Mahmudov B.J., Norqulov A.A. *Avtomobillarda ishlatiladigan ashyolar*. – Toshkent: "Talqin" nashriyoti, 2012. – 304 b.
2. Maxmudov A.A., Ne'matov H.A. *The procedure for drawing up legal grounds and documents for tuning* // "PEDAGOGS". – 220–222-betlar.
3. Maxmudov A.A. *Iqtisodiy salohiyatni oshirishda transport-logistika tizimining o'rni* // Muhandislik va iqtisodiyot jurnali. – 2024-yil, noyabr, № 4-son.
4. Maxmudov A.A., Ne'matov H.A. *Avtotyuning tushunchasi, turlari va tasnifi* // Muhandislik va iqtisodiyot jurnali. – 2025-yil, aprel, № 4-son. – 581–585-betlar.
5. Maxmudov A.A., Ne'matov H.A. *Tyuning uchun huquqiy asoslar va hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi* // Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation. – 2025-yil, fevral, Vol. 3, № 2. – 306–311-betlar.
6. Maxmudov A.A., Ne'matov H.A. *Yuk tashishning asosiy elementlari* // Universal Journal of Technology and Innovation. – 69–71-betlar.
7. Maxmudov A.A., Ne'matov H.A. (2025). *Avtomobil dvigatel tyuningi* // Development of Science. – 11(1), 95–100-betlar.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>